

**BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QITUVCHILARIGA  
INTEGRASIYALASHGAN TA‘LIM ASOSIDA O‘QITISHNI O‘RGATISH  
METODIKASI**

**M.J. Maxammatova,  
ADPI, Pedagogika va psixologiya  
kafedrası katta o‘qituvchi  
Vaxobova Dilafuz Avazbekovna  
biologiya ta’lim yo‘nalishi talabasi**

**Annotasiya:** Ushbu maqolada integratsiyalashgan ta’limda o‘quvchilarni o‘qitish va tarbiyalashga yangi yondoshuvlar, boshlang‘ich sinflarda integratsiyalangan talimni amalga oshirish metodikasi va integratsiyalashgan darslarni amaliyotda qo‘llash va bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini integratsiyalashgan ta’lim berish ko‘nikmalarini yanada mahorat bilan o‘tishi uchun ommalashgan hamda zamonaviy metodlar, texnologiyalar haqida ma’lumotlar berilgan.

**Kalit so‘zlar:** integratsiya, integratsiyalashgan ta'lim, metodika, boshlang‘ich ta'limda integratsiya, fanlararo aloqadorlik, ta'lim, metod, klassika, metodika, aloqadorlik.

Bugungi zamonaviy ta’lim tizimiga tubdan o‘zgartirishlar kiritilishi bilan bir qator ta’lim-tarbiya jarayonini olib boruvchi shaxslarga ham yangi innovatsion talablar qo‘yila boshladi. Jumladan, zamonaviy o‘qituvchi yangi innovatsion faoliyatga tayyormi? degan savolga javob izlana boshladi. Buning uchun o‘qituvchining o‘zi ta’lim tizimidagi islohotlarning tub mohiyatini anglagan holda an’anaviy ta’limdan zamon talabiga mos innovatsion ta’limga o‘tishi lozim.

Biz bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga quyidagi fanlararo bog‘lanishni o‘rgatishimiz shart. Boshlang‘ich sinfdagi ta’lim-tarbiya jarayoni shaxs kamolotiga poydevor qo‘yiladigan dastlabki bosqichdir. Undagi ta’lim-tarbiyaning asosiy vazifasi pedagogik jarayonni takomillashtirish orqali yosh avlodni bilimli, har tomonlama yetuk, mustaqil fikrlay oladigan darajada shakllantirish uchun zamin yaratishdir. Hozirgi kunda ta’lim jarayoniga innovatsion yondashuv, darslarda pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish va ularni o‘quv jarayoniga qo‘llash yo‘llarini ishlab chiqish dolzarb masalalardan biriga aylanib qoldi. Shunga binoan o‘qituvchi har bir akademik soatni kelajak avlod uchun ahamiyatini chuqur anglab, kreativ yondashgan holda tashkillashi lozim.

Maktabgacha va maktab ta'lim tizimini takomillashtirish, ta'lim sifatini yaxshilashni ta'minlashda moddiy omillar bilan bir qatorda, o'quvchilarda tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish darajasi muhim ahamiyatga kasb etadi. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi boshlang‘ich ta'lim o'quvchilarining intellektual fikrlay olish salohiyati, aqliy rivojlanishi, o'zini-o'zi anglash salohiyatini shakllantirishi, moddiy borliq go'zalliklarini his eta olishga o'rgatishi, boshqalar fikrlarini tushunishini, shaxsiy fikrlarini og'zaki va yozma bayon eta olish hislatlarini shakllantirishga erishishi mumkin. "Ta'lim va fan sohasini rivojlantirish davlat siyosati ma'no-mazmuni va uning dolzarbligidan kelib chiqib, unga quyidagicha izoh keltirish mumkin: birinchidan, yangi ta'lim tizimi, barkamol avlod kadrlarni tayyorlashdagi o'zgarishlar va yangicha yondashuvlar, zamonaviy kasb sohasining paydo bo'lgani hamda uning mamlakatimiz sharoiti bilan bog'liqligidir; ikkinchidan, ta'lim tushunchasi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot natijasida muayyan davrdan boshlab inson faoliyatining alohida mustaqil sohasiga aylanib, jamiyatning ijtimoiy tajribasini keyingi bosqichga uzatadi; uchinchidan, ta'lim inson shaxsining intellektual-ma'naviy qirralarini shakllantirish, uning jamiyat ishlab chiqarish va ijtimoiy, siyosiy, madaniy, ma'rifiy hayotida faol va muvaffaqiyatli ishtirokini ta'minlashga qaratilgan harakatlar yig'indisi bo'lib, ma'rifat hamda bilim berishni anglatadi; to'rtinchidan, fan jamiyatining ijtimoiy institutlaridan biri bo'lib, tabiat va jamiyat hayotini aks ettiruvchi

**“Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim, fan, innovatsiya va ilmiy tadqiqotlarning salmoqli natijalari: muammo va yechimlar” mavzusida Respublika ilmiy anjuman to’plam materiallari 2024-yil 19-aprel kun.**

ijtimoiy ong shaklidir. U katta ilmiy salohiyatni, ijodiy kuch-quvvatni birlashtirib, ma’naviy barkamol insonni tarbiyalashga, mamlakatda qudratli ilmiy salohiyatni yaratishga xizmat qiladi”.

Shu bilan birga, olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarga e’tibor qaratadigan bo’lsak, bo’lajak boshlang’ich sinf o’qituvchilarning metodik tayyorgarligini rivojlantirish masalalariga B.S.Abdullaeva, A.Sadikova, M.Toshpulatova, Yu.Jabborova, N.Muxitdinova, Z.T.Nishonova, G.Mamatova, N.V.Kuzbmina, M.I.Lukbyanova, A.K.Markova, N.V.Matyash, Ye.M.Pavlyutenkov va boshqalar alohida to’xtalib o’tgan. B.S.Abdullaeva o’z ilmiy ishlarida boshlang’ich sinf o’qituvchilarning metodik tayyorgarligini rivojlantirish, ta’lim vositalarini rivojlantirish, matematik tafakkurni rivojlantirish borasida o’quvchilar savodxonligini oshirishga oid ishlarni tahlil qilgan [2].

Boshlang’ich sinf o’qituvchisi “Atrofimizdagi olam” faniga ikkinchi darajali fan tariqasida munosabatda bo’lmay, shaxsni shakllantirishning asosiy omili sifatida qarashi kerak. Chunki kichik yoshdagi o’quvchilarga boshlang’ich sinfdagi predmetlar orqali yuqori sinflarda o’tiladigan fanlarga tayyorgarlik bosqichlari amalga oshiriladi. Masalan, “Atrofimizdagi olam” darsidagi mavzularni o’zlashtirish bilan o’quvchilar botanika, biologiya, kimyo kabi fanlarga doir dastlabki tushunchalarga ega bo’lib borishadi.

Boshlang’ich sinfdagi 3-4-sinf atrofimizdagi olam darsida o’qituvchi shunday usullardan foydalanishi kerakki, bu usullar orqali o’quvchilarda tabiatga doir bilim, ko’nikma va malakalar hosil bo’lishi bilan bir qatorda botanika, kimyo kabi fanlarga doir bilimlar uchun zamin yaratishi kerak.

Atrofimizdagi olam fanidan “O’zbekistonning foydali qazilmalari mavzusida oltin, kumush, mis kabi tabiiy qazilmalar” haqida ma’lumot beriladi. Ko’rinib turibdiki, bu mavzu orqali o’qituvchi bolalarda kimyo faniga doir dastlabki tushunchalarni hosil qilmoqda.

“Tuproqlar” mavzusini o’rganish jarayonida tuproqni geografik qobiqning muhim komponenti ekanligiga doir ilk tasavvurlar hosil bo’ladi.

“Yovvoyi o’tlar” mavzularini o’zlashtirish jarayonida o’qituvchi ta’limini amaliyot bilan bog’liqlik prinsipiga rioya qilsa, bolalar kundalik hayotda uchragan, ammo nomini bilmagan o’simliklar haqida savollar berishadi. G’umay, Ajriq, Salom – alaykum, Semizo’t, sho’ra kabi begona o’tlar haqida tushunchaga ega bo’lishadi.

Yuqoridagi misollardan ko’rinib tuibdiki, boshlang’ich sinf o’qituvchilari “Atrofimizdagi olam” fanini qiziqarli, tushunarli va yangi pedagogik texnologiyalar asosida mahorat bilan tashkillashi shart. Bu bilan u yuqori sinflarda o’tiladigan botanika, biologiya va kimyo fanlari uchun o’qituvchilarni tayyorlab boradi va kelajak uchun zamin yaratadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi "O’zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to’g’risida" PF-5847-son Farmoni
2. “Bo’lajak boshlang’ich sinf o’qituvchilarini fanlarni integratsiyalab o’qitishga tayyorlash”. Hayitov Anvar Isomiddin o’g’li, TDPU tadqiqotchisi. Pedagogika ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2022- yil,3-bet.
3. “Integratsiyalashgan darslarning samaradorligini oshirish va ta’lim prinsiplari”. Mavlonova.R, Raxmonqulova. N. Boshlang’ich ta’limning integratsiyalashgan pedagogikasi. Toshkent “O’qituvchi” 2006.
4. “Bo’lajak boshlang’ich sinf o’qituvchilarini fanlarni integratsiyalab o’qitishga tayyorlash”. Hayitov Anvar Isomiddin o’g’li, TDPU tadqiqotchisi. Pedagogika ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2022- yil,4-bet.